

DIABETIK NEYROPATIYADA VITAMIN B KOMPLEKSI SAMARADORLIGI

Choriyev Shohjahon Habibullo o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti talabasi

e-mail: shohjahonchoriyev44@gmail.com

Annotatsiya. Diabetik neyropatiya (DN) qandli diabetning eng ko'p uchraydigan surunkali asoratlardan bo'lib, periferik nerv tolalarining metabolik va mikrosirkulyator shikastlanishi natijasida og'riq, paresteziya, uvishish, sezuvchanlik pasayishi hamda funksional cheklanishlar bilan kechadi. DN patogenezida giperglikemiya, oksidativ stress, polioli yo'li faollashuvi, glikatsiya mahsulotlari to'planishi va endonevral ishemiya yetakchi omillar sifatida qaraladi. Shu bois davolashda glikemik nazorat bilan bir qatorda nerv to'qimasining trofik-metabolik ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlovchi yordamchi terapiyalar dolzarbdir. Vitamin B kompleksi (B1, B6, B12) neyronlarda energiya almashinuvi, mielin sintezi, aksonal transport va neyromediatorlar biosintezida ishtirok etishi sababli DNda istiqbolli vosita sifatida qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: diabetik neyropatiya, vitamin B kompleksi, tiamin, piridoksin, kobalamin, neyropatik og'riq, mielin.

EFFICACY OF VITAMIN B COMPLEX IN DIABETIC NEUROPATHY

Shohjahon Habibullo o'g'li Choriyev

Student, Faculty of Medicine, Termiz University of Economics and Service

e-mail: shohjahonchoriyev44@gmail.com

Abstract. Diabetic neuropathy (DN) is one of the most common chronic complications of diabetes mellitus and is characterized by pain, paresthesia, numbness, reduced sensitivity, and functional limitations resulting from metabolic and microcirculatory damage to peripheral nerve fibers. Key factors in the pathogenesis of DN include hyperglycemia, oxidative stress, activation of the polyol pathway, accumulation of glycation products, and endoneurial ischemia. Therefore, alongside glycemic control, adjunctive therapies that support the trophic and metabolic needs of nerve tissue remain highly relevant. The vitamin B complex (B1, B6, B12) is

considered a promising option in DN because it participates in neuronal energy metabolism, myelin synthesis, axonal transport, and neurotransmitter biosynthesis.

Keywords: diabetic neuropathy, vitamin B complex, thiamine, pyridoxine, cobalamin, neuropathic pain, myelin.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОМПЛЕКСА ВИТАМИНОВ ГРУППЫ В ПРИ ДИАБЕТИЧЕСКОЙ НЕЙРОПАТИИ

Чориев Шохжахон Хабибулло ўғли

студент медицинского факультета

Термезского университета экономики и сервиса

e-mail: shohjahonchoriyev44@gmail.com

Аннотация. Диабетическая нейропатия (ДН) является одним из наиболее частых хронических осложнений сахарного диабета и протекает с болью, парестезиями, онемением, снижением чувствительности, а также функциональными ограничениями, возникающими вследствие метаболического и микроциркуляторного повреждения периферических нервных волокон. В патогенезе ДН ведущими факторами рассматриваются гипергликемия, оксидативный стресс, активация полиолового пути, накопление продуктов гликации и эндоневральная ишемия. В связи с этим, наряду с контролем гликемии, актуальны вспомогательные виды терапии, поддерживающие трофико-метаболические потребности нервной ткани. Комплекс витаминов группы В (В1, В6, В12), учитывая его участие в энергетическом обмене нейронов, синтезе миелина, аксональном транспорте и биосинтезе нейромедиаторов, применяется при ДН как перспективное средство.

Ключевые слова: диабетическая нейропатия, комплекс витаминов группы В, тиамин, пиридоксин, кобаламин, нейропатическая боль, миелин.

Maqsad

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi diabetik neyropatiya bilan ogʻrigan bemorlarda vitamin B kompleksi, yaʼni tiamin, piridoksin va kobalaminning qoʻllanilishi klinik jihatdan qanchalik samarali ekanligini baholashdan iborat. Shuningdek, vitamin B kompleksining neyropatik ogʻriq sindromi, paresteziya, uvishish, sezuvchanlik buzilishlari va bemorlarning kundalik funksional faolligiga

ta'sirini aniqlash, uni diabetik neyropatiyani kompleks davolashda qo'llash imkoniyatlarini ilmiy asoslash hamda sog'liqni saqlash uchun.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot klinik kuzatuv usulida olib borildi va diabetik neyropatiya tashxisi qo'yilgan bemorlarni qamrab oldi. Bemorlar ikki guruhga ajratildi: asosiy guruh standart gipoglikemik davolash fonida vitamin B kompleksi qabul qildi, nazorat guruhida esa faqat standart terapiya qo'llanildi. Baholash jarayonida neyropatik og'riq intensivligi, paresteziya va uvishish chastotasi, taktil hamda vibratsion sezuvchanlik ko'rsatkichlari, shuningdek funksional holat dinamikasi solishtirma tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar klinik kuzatuv natijalari asosida baholandi. Tekshiruv davomida bemorlarning yoshi, kasallik davomiyligi, glyukemik nazorat darajasi va hamroh kasalliklar inobatga olindi. Statistik taqqoslash klinik belgilar dinamikasini aniqlash maqsadida sifatli tahlil asosida amalga oshirildi va natijalarning ishonchliligini oshirish uchun guruhlararo farqlar izchil kuzatildi va qayd etildi, tadqiqot davomida muntazam ravishda klinik nazorat olib borildi.

Natijalar .

Tadqiqot natijalariga ko'ra vitamin B kompleksi qabul qilgan bemorlarda neyropatik og'riq sindromining sezilarli darajada kamayishi kuzatildi. Paresteziya va uvishish belgilarining yengillashishi, taktil hamda vibratsion sezuvchanlikning yaxshilanishi qayd etildi. Bemorlarning yurish qulayligi va kundalik faoliyati ijobiy tomonga o'zgardi. Vitamin B12 nerv tolalari regeneratsiyasini qo'llab-quvvatlashi hisobiga sensor buzilishlar kamayishida muhim rol o'ynadi. Nazorat guruhida esa klinik yaxshilanish sustroq va barqaror bo'lmagan tarzda namoyon bo'ldi. Asosiy guruhda simptomlarning pasayishi davolash davomiyligi bilan bog'liq holda izchil kuchaydi. Og'riq shikoyatlari kamayishi bemorlarning psixoemotsional holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Sezuvchanlik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar klinik kuzatuvlarda barqaror natijalar bilan tasdiqlandi va nazorat guruhi bilan solishtirganda aniq ustunlik mavjudligi qayd etildi, tahlil jarayonida ko'p marotaba kuzatildi va baholandi batafsil.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalari vitamin B kompleksi diabetik neyropatiyada samarali yordamchi davolash vositasi ekanligini ko'rsatdi. U neyropatik og'riqni kamaytiradi, paresteziya va sezuvchanlik buzilishlarini yengillashtiradi hamda nerv tolalarining funksional tiklanishini qo'llab-quvvatlaydi. Vitamin B kompleksini standart gipoglikemik terapiya bilan birgalikda qo'llash bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv diabetik neyropatiyani kompleks

davolashda klinik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Uni qo'llash individual klinik holat, xavfsizlik va davolash davomiyligini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Kelgusida kengroq klinik tadqiqotlar o'tkazish ushbu natijalarni mustahkamlashga yordam beradi va amaliy tibbiyotda qo'llash strategiyalarini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin, degan ilmiy xulosa chiqarish mumkin deb hisoblanadi ushbu tadqiqot asosida.

Foydalangan adabiyotlar

1. Xolmatova Gulxayo Azimjonovna. **Sil kasalligi bilan bog'liq 2 tur qandli diabet bilan og'rigan bemorlarda D vitamini va B12 gomeostazining holati:** monografiya. - Andijon, 2024. - 107 b.
2. Ismailov S.I., Urmanova Y.M., Xodjayeva F.S. **Endokrinologiya:** darslik. - Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2017. - 512 b.
3. Nadjmitdinov O.B. **Diabetik polineyropatiyaning postmenopauzal yoshdagi ayollarda dolzarb jihatlari (adabiyotlar sharhi).** - Nashr.uz (elektron ilmiy nashr), 12.04.2025.
4. Nadjmitdinov O.B. **Osteoporoz va diabetik polineyropatiya o'rtasidagi bog'liqlik: komorbidlik mexanizmlari va klinik xususiyatlari (adabiyotlar sharhi).** - Nashr.uz (elektron ilmiy nashr), 12.04.2025.
5. **Endokrinologiya** (darslik matni; diabetik polineyropatiyada benfotiamin/B-guruh vitaminlari haqida bo'limlar mavjud). - Toshkent, 2017. (S.I. Ismailov va boshq.).
6. **Diabetik neyropatiya** (umumiy tushuncha va tasnif bo'yicha qisqa izoh). - O'zbek Vikipediyasi (elektron manba).